E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

VOLUME 6, ISSUE 2, 2023

HUQUQBUZARLIK O‘ZI NIMA

Meliyeva Dilrabo Baxtiyarovna

Mirzo Ulug‘bek tumani maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi metadist-psixologi

Annotatsiya

Huquqbuzarlik –huquq va muomala layoqatiga ega sub’yekt tomonidan sodir etiladigan , huquq normalari talablariga zid keluvchi hamda shaxsga , mulkka davlatga va butun jamiatga zarar keltiruvchi ijtimoiy xavfli qilmish. O’z xusiyatiga ko‘ra Huquqbuzarlik jinoyat ,nojo‘ya harakat ,intizomni buzish shaklida bo‘ladi.Ko‘p hollarda Huquqbuzarlik qonunbuzarlik so‘zi bilan bir xilda ishlatiladi.

Kalit so‘zlar

Huquqbuzarlik,jinoyatchilik,ijtimoiy-xavflilik,jinoiy,zarar,miqdor,sifat,tajavuz,noqonuniylik.

Mamalakatimizda huquqiy demokratik jamiyatni qurishday ezgu maqsad bor ekan .Bu maqsadga erishishda har bir fuqoro o‘z manfatlarini yurt manfatlari bilan bog‘lomog‘I lozim.Ayniqsa o‘sib kelayotgan yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash eng muhim va pirovart maqsadlardan biri bo‘lib qoladi.

Shuning uchun yoshlarni huquqiy ongi va madaniyatini shakilantirishimiz asosiy vaqzifalardan biridir.Huquq sub’ektlari hisoblangan fuqorolar va yuridik shahslarning huquqiy hulqqa ongli ravishda amal qilishi ularning huquqiy ongi va huquqiy faoliyatiga bog‘liqdir.

Fuqoroviy huquqbuzarlik (shaxsga ,fuqaro,yoki tashkilotning mulkiga ziyon yetkazish),ma’muriy huquqbuzarlik (mas,mayda bezorilik,yo‘l harakatiqoidasini buzish),intizomiy huquqbuzarlik.Huquqbuzarlikning eng og‘ir havfli ko‘rinishi jinoyatdir.

Huquqbuzarlik uchun qonunda tegishlicha fuqoroviy ,ma’muriy,intizomiy va jinoiy javobgarlik belgilangan.

Huquqbuzarlik odatda 4 guruhga bo‘linadi.

1.Intizomiy huquqbuzarlik

2.Fuqorolik huquqbuzarligi

3.Ma’muriy huquqbuzarlik

4.Jinoiy huquqbuzarlik.

Intizomiy huquqbuzarlik –xizmat burchini bajarib turganda har qanday mehnatda majburiy bo‘lgan mehnat tortib –qoidalarining va rahbarlikka bo‘ysinish tamoillarining buzilishi.

Jinoiy huquqbuzarlik-Jinoyat sodir etish ya’ni o‘g‘irlik talonchilik ,odam o‘ldirish ichki ishlar xodimlariga qarshilik ko‘rsatish va boshqalar tushuniladi.

VOLUME 6, ISSUE 2, 2023

Ma’muriy huquqbuzarlik biri turi.O‘zbekiston Respublikasi MJKga ko‘ra qonun hujjatlariga binoan ma’muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan ,shaxsga fuqorolarning huquqlari va erkinliklariga,mulkchilikka ,davlat va jamoat tartibiga ,tabiy muhitga tajovuz qiluvchi g‘ayriqonuniy ,aybli (qasddan yoki ehtiyosizlik orqasida) sodir etilgan harakat yoki harakasizlik tushuniladi .Ma’muriy huquqbuzarlik oqibatida ma’muriy javobgarlikka tortish uchun asos bo‘ladigan ayb mavjud bo‘ladi.Qonunga ko‘ra ma’muriy huquqbuzarlik sodir etgan paytda 16 yoshga to‘lgan shaxslar ma’muriy javobgarlikka tortiladi .Ma’muriy huquqbuzarlik jinoyatdan ijtimoiy xavflilik darajasiga qarab farqlanadi.Ma’muriy huquqbuzarlik esa ,sud organlaridan tashqarim bir qancha vakolatli davlat boshqaruvi organlari tomonidan ham ko‘rib chiqildi.

Fuqorolik huquqbuzarlik-insonlarning mulkiga yoki shahsiga qarshi qonunga xilof xarakat yoki xarakasizlik natijasida yetkazilgan zarar.Masalan bir shahsdan qarz olib uni vaqtida qaytarmaslik,shartnomalarni bajarmaslilik va boshqalar.

Jamiyatda sodir etilayotgan barcha huquqbuzarliklarni jamoat xavfliligi darajasiga ko‘ra turlariga bo‘lish mumkin.

Jinoyatlar va Huquqbuzarliklar.

Jinoyat-qonun ustuviorligini buzishning eng xavfli turi. Jinoyat qonunchiligida ko‘zda tutilgan va jinoiy jazo qo‘llashiga olib keladigan aynan shunday ijtimoiy xavfli xatti-xarakatlardir.

Huquqbuzarlikning quyidagi belgilari mavjud: Ijtimoiy xavflilik-Huquqqa zid,Ayblilik,Jazoga loyiqlilik

Ijtimoiy xavflilik shundan iboratki ,bunda huquqbuzar jamiyatning qadriyatlariga tajovuz qiladi,inson hayotiga suiqasd qiladi,davlat va boshqa insonlarga zarar keltiradi.Ularning mol-mulkini nobud qiladi hamda noxush hodisalar keltirib chiqarib ,jamiyat a’zolari manfatiga zarar keltiradi.

O‘z oilasi ,ota-onasi ,jamoasi ,yor-u birodarlarini qiyin uyatli ahvolga solib qo‘yadi Emg yomoni u o‘z kelajagini barbod qiladi.

Huquqqa zid-Huquqbuzarning qonun yoki huquqnormalari belgilab qo‘ygan majburiy talablarini buzishidir.

Ayblilik-yuqorida ta’kidlaganidek ,o‘z xatti –harakatini tushinadigan va unga javob bera oldigan insonning huquqqa zid ,qonun talablariga qarshi xatti harakatlaridan kelib chiquvchi ayibidir. Ayiblilik qasddan yoki ehtiyosizlik oqibatida sodir bo‘ladi .Inson inson sifatida dunyoga kel;gan ekan,uning oldida doimo ikki yo‘l –huquqiy normalariga ,qonun talablariga vijdonan yoki majburiy bo‘ysungan holda o‘z kelajagini yaratish jamiyat uchun o‘z xalqi uchun ijtimoiy foyda bkeltirish .Ikkinchi yo‘l esa hayoti davomida huquqa xilof ,huquqiy norma va qonun talablatri mensimasdan bo‘ysunmasdan yashash.Aybli harakat qilish ,jamiyatga zarar yetgazishdir.

Jazoga loyiqlik-bu har qanday huquqbuzarlik sodir etgan shaxsning vakolatli davlat organi tomonidan javobgarlikka tortilishi ,jazo esa huquqbuzarlik sodir etgan shaxsga nisbatan qo‘llaniladigan huquq buzarni muayyan huquq va erkinliklardan mahrum qilishdan iborat majburlov chorasiidir.

VOLUME 6, ISSUE 2, 2023

Yuqorida aytib o‘tilganidek ,jamiyat uchun xavfli bo‘lgan har qanday qilmish huquqbuzarlik deyiladi.Huquq normalari barcha ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi.

Huquqbuzarlik-bu qonuniy xatti –harakatlarning aksi(antibot) .Har qanday buzilish juda katta va jamoat munosabatlariga zarar yetkazadi ,jamiyat va davlatning normal rivojiga to‘sqinlik qiladi.Barcha huquqbuzarliklar umumiy xususiyatlarga ega bo‘lib ,ularni bitta ijtimoiy hodisaga – huquqbuzarlikka bog‘lashga imkon beradi.

Huquqbuzarlik belgilari yig‘indisi ,tizimida tahlil qilinishi kerak .Ular huquqbuzarlillarni boshqa ijtimoiy normalardagi jinoyatlardan ajratishga imkon beradi va aniq jinoyatlar tarkibida batafsil bayon etilgan.

Huquqbuzarlik tushunchasini chuqurroq o‘rganish uchun huquqbuzar likening obekti va subektini farqlay olishga o‘rganishimiz lozim .

Huquqbuzarlik obekti -huquq bilan tartibga solinadigan va muhofaza qilinadigan ijutimoiy munosabatlar .Ijtimoiy munosabatlar o‘zi nima degan savolga quyidagicha javob berish mumkin.Odamlar ijtimoiy hayotda o‘z xatti harakatlariga javob berishga majburlar.Ular ijtimoiy hayotda bir birlar bilan o‘zaro munosabatga kirishadilar .Aynana mana shu munosabatlar –ijtimoiy munosabatlar.

Ushbu kodeks bilan taqiqlangan ,aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakasizlik) jazo qo‘llash tahdidi bilan jinoyat deb topiladi.

Jinoyat –jamiyat uchun xavfli bo‘lgan qilmish (harakat yoki harakasizlik).

Qariyib har doim inson oldida huquqqa mos yoki huquqqa zid tarzda harakat qilishni tanlash imkoni bo‘ladi . Agar ikkinchi yo‘lni tanlsa bu birinchi navbatda uning o‘ziga , qolaversa jamiyatga zarar yetkazadi.

Huquqbuzarlik subekti esa huquqqa zid aybli qilmishni sodir etgan shaxsdir.Aynana shu shaxs huquqbuzar deb ataladi. Har qanday shaxs ham huquqbuzar deb tan olinavermaydi.Huquqbuzarlik subekti deb olinishi uchun shaxs o‘z qiqlmishiga javob bera oladigan aqli raso bo‘lishi shart.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Omarova P. O., Shaxova R. M. Maktab ta'limi muammolarining zamonaviy psixologik-pedagogik tadqiqotlari // Fan va ta'limning zamonaviy muammolari. 2013. No 2. S. 295–295.

2. Vygotskiy L. S. Inson taraqqiyoti psixologiyasi. M.: Ma'no, 2005 yil.

3. Lokhaneva D. I., Skorobogatova N. V. Bolalarga nisbatan oiladagi zo'ravonlik muammolarini o'rganish // Shadrinsk davlat pedagogika institutining xabarnomasi. 2013. No 1. S. 206–211.

4. Mitraxovich O.A. O'qituvchini baholashning o'ziga xos xususiyatlari: kecha, bugun, ertaga // Psixologiya. - Minsk, 2002. - No 3. - S. 20-28.

5.Rigbi K. Avstraliya maktablarida zo'ravonlik: bezorilikning bir nechta idroklari [Elektron resurs] // Bezorilikka qarshi milliy markaz, Melburn, 28-29 iyul, 2016 yil.